

ISSN 2181-2764
2026



SHARQ FILOLOGIYASI JURNALI



ВОСТОЧНЫЙ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE ROLE OF “KIFAYATU-N-NAHW FI ILMI-L-I’RAB” IN THE ZAMAKHSHARI SCHOOL OF LINGUISTICS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF SUCCESSION AND INDEPENDENCE

Mansur Davletbayevich Jumaniyazov

Doctoral Student, Trainee Teacher

Department of Arabic Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: davlatboymansur@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ziyovuddin Makkiy Khorazmiy, Kifayatu-n-nahv, Mahmud Zamakhshariy, Unmuzaj, Mufassal, Nahw, sharh, comparative analysis, independent work.

Received: 08.05.26

Accepted: 09.05.26

Published: 10.05.26

Abstract: This research is dedicated to determining the genre characteristics of Ziyovuddin Makkiy Khorazmiy’s work “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb.” Through a comparative analysis with Mahmud Zamakhshariy’s “Unmuzaj” and “Mufassal,” the author demonstrates that this work is an independent scientific source. The study identifies over 50 significant differences in structure, terminology, and approaches to grammatical rules. It substantiates how the work diverges from classical commentary traditions, highlighting the author’s individual scholarly position and his place in Eastern manuscript studies. The research concludes that “Kifayatu-n-nahv” is a systematic, original grammatical treatise with its own methodology, rather than a mere commentary (sharh).

ZAMAKHSHARIY TILSHUNOSLIK MAKTABIDA «KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E’RĀB» ASARINING O’RNI: VORISIYLIK VA MUSTAQILLIK MASALALARI QIYOSIY TAHLILI

Mansur Davletbayevich Jumaniyazov

TDSHU tayanch doktoranti, stajor o‘qituvchi

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: davlatboymansur@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy, Kifayatu-n-nahv, Mahmud Zamaxshariy, al-Unmuzaj, al-Mufasssal, nahv, sharhnavislik, qiyosiy tahlil, mustaqil asar.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarining janriy tabiatini aniqlashga bagʻishlangan. Muallif asarni Mahmud Zamaxshariyning “Unmuzaj” va “Mufasssal” asarlari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali uning mustaqil ilmiy manba ekanligini isbotlaydi. Tadqiqotda asarning tuzilishi, terminologiyasi va grammatik qoidalarga yondashuvidagi 50 dan ortiq jiddiy farqlar aniqlangan. Xususan, asarning klassik sharhchilik anʼanalaridan farq qilishi, muallifning individual ilmiy pozitsiyasi va Sharq manbashunosligidagi oʻrni dalillangan. Xulosa sifatida, mazkur asar shunchaki sharh emas, balki oʻziga xos manhajga ega boʻlgan tizimli nahviy taʼlif ekanligi asoslangan.

**«КИФАЙАТУ-Н-НАХВ ФИ ИЛМИ-ЛЬ-И’РАБ» В ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ШКОЛЕ
ЗАМАХШАРИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ И
САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ**

Мансур Давлатбаевич Джуманиязов

Докторант, стажер-преподаватель

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: davlatboymansur@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Зиявуддин Макки Хорезми, Кифаяту-н-нахв, Махмуд Замахшари, аль-Унмузадж, аль-Муфасссал, нахв, шарх, сравнительный анализ, самостоятельный труд.

Аннотация: Данное исследование посвящено определению жанровой природы произведения Зиявуддина Макки Хорезми «Кифаяту-н-нахв фи илми-ль-и’раб». Путем сравнительного анализа с трудами Махмуда Замахшари «Унмузадж» и «Муфасссал» автор доказывает, что данное сочинение является самостоятельным научным источником. В ходе исследования выявлено более 50 существенных различий в структуре, терминологии и подходе к грамматическим правилам. Обосновано отличие труда от классических традиций комментирования, выделена индивидуальная научная позиция автора и его роль в восточном источниковедении. В заключении доказывается, что «Кифаяту-н-нахв» представляет собой оригинальный и систематический грамматический труд с

Kirish. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarining janriy tabiati borasida sharqshunoslikda turlicha yondashuvlar mavjud. Karl Brokkelman va Hoji Xalifa kabi olimlar uni Zamaxshariyning “Unmuzaj” asariga sharh deb hisoblasalar, Shayx Og‘a Buzruk At-Tahroniy va J.Tohirov kabi tadqiqotchilar uni mustaqil asar sifatida baholaydilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarining janriy tabiati va uning Mahmud Zamaxshariy lisoniy merosi bilan aloqadorligi borasida sharqshunoslikda turlicha ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xususan, nemis sharqshunosi Karl Brokkelman va Hoji Xalifa kabi olimlar ushbu asarni Mahmud Zamaxshariyning “Unmuzaj” asariga yozilgan sharh yoki unga monand uslubda yozilgan asar deb hisoblaydilar.

Biroq, ilmiy jamoatchilikning boshqa bir vakillari, jumladan, eronlik faqih va tarixchi Shayx Og‘a Buzruk At-Tahroniy, manbashunos olim J.Tohirov hamda turkiyalik tadqiqotchi Ayhan Jon ushbu manbani sharhlar qatoriga kiritmaydilar va uni mustaqil asar sifatida baholaydilar.

Shuningdek, Shayx al-Amiyniy va Sayyid Muhammad Rido al-Xuroson kabi olimlar “Kifayatu-n-nahv” asari bevosita Zamaxshariyning boshqa bir yirik asari “Mufassal” uslubida yozilganligini, ammo o‘ziga xos ilmiy manhajga ega ekanligini qayd etadilar.

Tadqiqot materiallarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda o‘rta asrlar arab tili grammatikasiga oid manbalarning murakkab tuzilishidan kelib chiqib, “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asari tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil metodlari asosida o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan quyidagi uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda strukturaviy qiyos metodi qo‘llanildi. Bunda “Kifayatu-n-nahv” asari mundarijasining Mahmud Zamaxshariyning “al-Unmuzaj” va “al-Mufassal” asarlari bilan tizimli o‘xshashligi hamda ulardan ajralib turuvchi farqli jihatlar tahlil qilindi. Bu metod asarning kompozitsion qurilishini aniqlash va muallifning mavzularni ketma-ketlashtirishdagi mustaqil yondashuvini yoritib berishga xizmat qildi.

Ikkinchi bosqichda terminologik tahlil amalga oshirildi. Mazkur jarayonda asarda qo‘llanilgan nahvga oid istilohlarning mazmun-mohiyati, ularning qo‘llanilish doirasi va muallifning individual terminologik tanlovlari aniqlandi. Ayniqsa, muallif tomonidan kiritilgan yangi istilohlar va ularning klassik grammatik an‘anadagi o‘rni tahlil markazida bo‘ldi.

Uchinchi bosqichda esa komparativ (qiyosiy) tahlil metodi orqali “Kifayatu-n-nahv”dagi asosiy grammatik qoidalar (kalima, kalom, ism, fe‘l va boshqalar) batafsil o‘rganildi. Ushbu tahlil

jarayonida Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning qarashlari nafaqat Zamaxshariy asarlari, balki Sarafiy, Ibn Hojib, Zujajiy kabi klassik nahv maktablari vakillarining nazariyalari bilan o'zaro qiyoslandi. Bu esa asarning naqadar mustaqil ilmiy manba ekanligini hamda muallifning turli lisoniy maktablar o'rtasidagi murosali yoki tanqidiy pozitsiyasini dalillash imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarining janriy tabiati va uning Mahmud Zamaxshariy qalamiga mansub manbalar bilan aloqadorligi borasida sharqshunoslikda turlicha ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xususan, ayrim tadqiqotchilar ushbu asarni Mahmud Zamaxshariyning "Unmuzaj" asariga yozilgan sharh deb hisoblaydilar. Nemis sharqshunosi Karl Brokkelman ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan tadqiqotchilardan biri sifatida qayd etiladi (Brockelmann, 1975, Vol.6, p. 262). Shuningdek, Hoji Xalifa o'zining "Kashfu-z-Zunun" asarida mazkur asarning "Unmuzaj"ga sharh ekanligini yoki unga monand uslubda yozilganligini ta'kidlab o'tgan (Khalifa, 2021, Vol. 1, p. 185 Khalifa, 2021, Vol. 6, p. 1498)

Biroq, ilmiy jamoatchilikning boshqa bir vakillari ushbu asarni mustaqil asar sifatida baholab, uni sharhlar qatoriga kiritmaydilar. Mashhur eronlik faqih va tarixchi Shayx Og'a Buzruk At-Tahroniy ushbu manbani sharh deb hisoblamagan (Al-Tehrani, 1983, Vol.8, p. 97). Shu bilan birga, manbashunos olim J.Tohirov ham asarning tavsifida uni sharh sifatida tasniflamaydi (Tohirov et al., 2019, p. 262). Ayhan Jon ham "Rumelide til va adabiyot tadqiqotlari jurnali"da chop etilgan maqolasida asarni sharh sifatida zikr etmagan (Jon, 2021, p. 682).

Bundan tashqari, asarning tuzilishi va uslubiy xususiyatlariga to'xtalgan Shayx al-Amiyniy va Sayyid Muhammad Rido al-Xuroson kabi olimlar "Kifayatu-n-nahv" asari bevosita Zamaxshariyning boshqa bir yirik asari "Mufasssal" uslubida yozilganligini qayd etadilar (Al-Khwarazmi, 1414 AH, p. 23).

Birinchi fikr tarafdorlari ushbu asarni "Al-Unmuzaj" ning sharhi deb qaraganda umumiy xususiyatlarni nazarda tutgan. Sababi, "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asari Zamaxshariyning "al-Unmuzaj" kitobining qolipida yozilgan. Undagi mavzular ketma-ketlik va qoidalarining yoritilishi Zamaxshariyning "Al-Unmuzaj"ga yaqin turadi. Bu degani asarning sharhi degani emas. Asarning umumiy o'xshash xususiyatlari quyidagilarda ko'rinadi:

"Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarining mundarijasi "Unmuzaj" ning mundarijasiga yaqin turadi.

Muallif ba'zi qoidalar va misollarni Zamaxshariyning "Mufasssal" asaridan keltirgan.

Nahvga oid istilohlarning ham ko'p joylarida bir xillikni ko'ramiz.

Quyida "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asari va "Unmuzaj"da kelgan matn asosida ikkitta asar qiyoslashga harakat qilingan.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida kalima lug‘aviy vaz’ga ko‘ra yagona ma’noni ifodalovchi lafz sifatida ko‘rilgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.3a).

“Unmuzaj”da kalima yakka birlik (mufrad) ekanini ko‘rsatib, nazariy tahlilsiz bayon etiladi (Ardabili, 1999, p. 4).

“Mufassal” kalima yagona ma’noli mustaqil so‘z sifatida tushuntirgan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 32).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida kalomni tugallangan ma’noni mustaqil ifodalovchi, kamida ikki kalimadan biri ikkinchisi haqida xabar beruvchi ikki ism asosida tuzilgan birlik sifatida ta’riflaydi (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.4b).

“Unmuzaj”da kalom biri ikkinchisiga isnod qilingan, ya’ni ega–kesimlik munosabatidagi ikki ismdan tuzilgan birlik sifatida ta’riflanadi (Ardabili, 1999, p.7).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida ismni zamonga bog‘lanmagan, o‘z-o‘zicha mustaqil ma’noni ifodalovchi lafz sifatida belgilaydi (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.4a). Bu ta’rif Sarafiy (Ibn Ya’ish, n.d., Vol. 1, p. 82) va Ibn Hojibning qarashiga mos hisoblanadi (Ibn al-Hajib, 2018, p. 19)

“Unmuzaj”da ism o‘zi haqida xabar berish (predikatsiya) mumkin bo‘lgan birlik sifatida tushuniladi (Ardabili, 1999, p. 8)

“Mufassal” ism mustaqil ma’noga ega lafz (Al-Zamakhshari, 2003, p. 33)

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida foilni harakat egasi bo‘lib, fe’l bilan bog‘langan ega sifatida tushuntiradi. Bu Abu Bakr Siroj qarashi bilan bir hil (Al-Baghdadi, 1996, p. 72).

“Unmuzaj”da foil ta’rifi yo‘q.

“Mufassal” foil fe’l (yoki shibh-i fe’l)ga doimo suyanadigan va undan oldin keladigan ega (Al-Zamakhshari, 2003, p. 44).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida muftada va xabarni alohida qismga ajratadi (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.20b). “Misbah” asari bilan bir hil (Al-Mutarrizi, n.d., p. 146).

“Unmuzaj”da muftada va xabar bir qismda o‘rganilgan (Ardabili, 1999, p. 28)

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida كان fe’lining ismi bosh kelishikdagi ismlar qatorida o‘rganilmagan. Balki noqis fe’llar qismida keltirilgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.195b).

“Unmuzaj”da كان fe’lining ismi bosh kelishikdagi ismlar qatorida zikr qilingan (Ardabili, 1999, p. 28)

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida muftado va xabar alohida ta’riflab, hech qanday boshqaruvchi yuklama yoki fe’l ta’sirisiz, kesim bog‘lanadigan gapning egasi sifatida tushuniladi. (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.23a).

“Unmuzaj”da muftadaga ta’rif yo‘q

“Mufasssal” muftada va xabar umumiy tarzda ta’riflab, suyanish uchun ikkita mustaqil ism (Al-Zamakhshari, 2003, p. 47).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida “Noqis fe’llar” fe’l bobida, “Egaga ta’sir qiluvchi yuklamalar”, “Mutlaq inkor yuklamaning ismi” va “Laysa ma’nosidagi ٱ ning va ٱ ning xabari” harflar qismida o’rganilgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.56a).

“Unmuzaj”da “Noqis fe’llar”, “Egaga ta’sir qiluvchi yuklamalar”, “Mutlaq inkor yuklamaning ismi” va “Laysa ma’nosidagi ٱ ning va ٱ ning xabari” nasb holatdagi ismlar mavzusida o’rganilgan (Ardabili, 1999, p. 40).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida fe’l qismi o’nta bobdan iborat.

“Unmuzaj”da sakkizta sinfdan iborat.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida fe’lni mustaqil ma’noga ega bo’lib, mazmuni albatta muayyan zamon bilan bog’lanadigan hamda ko’makchilarni qobul qila olishini nazarda tutadi (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.171a). Ibn Yaishning (Ibn Ya’ish, n.d., Vol. 4, p. 207) va Zujajiyning (Al-Zablawi, n.d., p. 95) fe’lga bergan ta’rifi asardagi bilan bir xil.

“Unmuzaj”da Fe’l ta’rifi berilmagan.

“Mufasssal” “Voqea-hodisaning zamonga bog’lanishiga dalolat qiladigan so’z turkumi fe’l deyiladi” (Al-Zamakhshari, 2003, p. 243).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida fe’lni o’n turga bo’lgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.172a). Ibn Hojib qarashi bilan bir hil (Ibn al-Hajib, 2018, p. 161).

“Unmuzaj” asarida fe’llar o’n bir turga bo’lingan (Ardabili, 1999, p. 134).

“Mufasssal” asarida fe’llarning turi 12 ta deya qayd etiladi (Al-Zamakhshari, 2003, p. 243).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida “O’timli va o’timsiz fe’llar” bitta mavzularda o’rganilgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.187b).

“Unmuzaj” asarida “O’timli va o’timsiz fe’llar” alohida mavzularda o’rganilgan (Ardabili, 1999, p. 145).

Qiyos natijalari shuni ko’rsatadiki, “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asari nahviy tushunchalarni (kalima, kalom, ism, fe’l) nazariy jihatdan asoslab, ta’riflarni ilmiy an’ana bilan bog’lab bayon etadi, bu holat “Unmuzaj”dan tubdan farq qiladi. Asarda grammatik birliklar mustaqil bob va fasllar asosida tizimli yoritilgan bo’lib, “Unmuzaj”da esa ko’plab masalalar jamlangan yoki ta’rifsiz qoldirilgan. “Kifayatu-n-nahv” muallifi foil, muftada, xabar, fe’l kabi kategoriyalarni klassik nahv maktablari qarashlari bilan qiyosan izohlaydi, bu esa asarning ilmiy chuqurligini oshiradi. Fe’l va uning turlari masalasida “Kifayatu-n-nahv” yanada batafsil va mukammal tasnif taklif etib, “Unmuzaj”dan metodologik jihatdan ustun turadi. Qiyosiy tahlil “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarining mustaqil, original va tizimli nahviy ta’lif ekanini, uni “Unmuzaj”ning sharhi sifatida baholash ilmiy jihatdan asossiz ekanini ko’rsatadi.

Zamaxshariy yaratgan “Mufasssal” asarida keltirilgan qoidalar va ularning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asaridagi masalalar bilan qiyoslasak ish yanada oydinlashishi mumkinligidan uni amalga oshirdik. Quyida ikki asarning o’zaro qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

Eganing (mubtado) bosh kelishikda kelishi sababi:

“Mufasssal”: Ega va kesimning bosh kelishikda kelishi bog‘lanish sababidan ekanligini ta’kidlaydi (Al-Zamakhshari, 2003, p. 46).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida: Eganing bosh kelishikda bo‘lishini lafziy omillardan xoli bo‘lishi va so‘z boshida kelishi bilan izohlaydi (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.23b).

Kesimning (xabar) egadan oldin kelishi (taqdim):

“Mufasssal”: So‘roq olmoshlari egadan oldin kelishi zikr qilingan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 50).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida: Bu holatga للاستفهام الكلام صدر qoidasi (so‘roq olmoshlari gapning boshida kelish haqqiga ega) degan yangi istiloh qo‘llagan va uni grammatik qoida sifatida belgilagan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.28a).

Kesim jumla bo‘lib kelganda undagi yashirin so‘z:

“Mufasssal”: Fe’l yashirin kelishini yoqlagan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 49).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida: Fe’l ham, sifatdosh ham yashirin holatda kelishini e’tirof etib, ixtilofli fikrlarni birlashtirgan (murosali yondashuv) (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.26a).

Kesimning tushib qolishi (hazf):

“Mufasssal”: Faqat birlikdagi kesimning tushib qolishini zikr qilgan.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida: Birlikdagi so‘z bilan birga, butun bir jumla kesimning tushib qolishini ham tushuntirgan va Qur’on oyati bilan dalillagan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.29a).

Sifatning masdar ma’nosida kelishi:

“Mufasssal”: Bu fasl berilmagan.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: مصدر الصفة وقوع “Sifatning masdar ma’nosida kelishi” faslini kiritgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.32a).

Agar hol ismiy gap bo‘lsa, “vav” bog‘lovchisi bilan kelishi:

“Mufasssal”: Ismiy hol faqat “vav” bog‘lovchisi bilan keladi (Al-Zamakhshari, 2003, p. 82).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Bu fikrni qo‘llamagan.

“Birgalikni ifoda qiluvchi” to‘ldiruvchi مع بمعنى الواو (vav ma’iyya) haqida:

“Mufasssal”: “Vav” harfi “ma’a (bilan) ma’nosida kelsa, undan keyingi ism tushum (nasb) kelishigida bo‘ladi (Al-Zamakhshari, 2003, p. 76).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Agar gapda fe’l yoki uning ma’nosi bo’lmasa, bunday ismda faqat bosh (raf) kelishigi qo’llanadi. Ya’ni fe’l bo’lmaganda, tushum kelishikni qat’iy rad etgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.54b).

Aniqlashtiruvchining (tamyiz) oldin kelishi:

“Mufasssal”: Abul Abbosning fikrini keltirgan holda, ayrim holatlarda joiz deb hisoblagan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 85).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Ko’pchilik nahvshunoslar va Sibavayh ham buni qat’iy rad qilganligini ta’kidlagan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.61b).

Ma’nodan uzilgan istisno (منقطع استثناء):

“Mufasssal”: Abadiy nasb bo’ladi deb qat’iy ta’kidlagan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 86).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Nasb holatiga misollar keltirgan, lekin ba’zi nahvshunoslarning bosh kelishikda kelishi mumkinligini ham ta’kidlab, “Mufasssal”dagi qat’iy qoidaga to’liq qo’shilmagan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.67b).

Ikki to’ldiruvchiga o’timli fe’llar:

“Mufasssal”: Ikki to’ldiruvchiga o’timli fe’llarning faqat bittasi zikr qilingan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 86).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Ikki to’ldiruvchiga o’timli fe’llarning ikkitasini va uning xususiyatlarini zikir qilib, أحضر “Olib kelmoq” fe’lini ikki to’ldiruvchiga o’timli fe’llar qatoriga kiritgan (KN-S nusxa 111b). Zamakhshariy bu fe’lni mazkur fe’llar tarkibiga kiritmagan.

Noqis fe’l turiga oid farq:

“Mufasssal”: (قعد) fe’lini “bo’lmoq” “aylanmoq” ma’nosida noqis fe’llar qatorida zikr qilgan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 264).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: (قعد) fe’lini noqis fe’llar qatoriga kiritmagan.

كان – “bo’lmoq” fe’lining egasi noaniq holatda, kesimi aniq holatda kelishi:

“Mufasssal”: Bu holatni she’riy bayt orqali القلب – “o’rin almashtirish” va chalkashlikning oldini olish kabi ma’noviy asoslar bilan izohlagan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 265).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Bu holat الاضطراب – “she’riy zarurat” sababidan bo’ladi (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.193a).

كان – “bo’lmoq” va بات – “turmoq” fe’lining ma’nosi:

“Mufasssal”: كان – “bo’lmoq” va بات – “turmoq” fe’lining صار “aylanmoq” ma’nosida kelishi zikr qilingan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 266).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Bu ma’noda kelishi haqida gapirilmagan.

أن – “an” inkor harfi oldidan kelishi (Maida surasi, 71-oyat):

“Mufasssal”: Oyatda أن “an” yuklamasidan keyingi fe’l ألا تكون fe’li so’zining harakati “zamma” yozilgan, ammo nasb (fatha) o’qilishiga ishora qilingan (M303).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Fe’lining harakati تَكُونُ “fatha” (nasb) yozilgan va bu Sibavayh yo‘nalishiga va Asim qiroatiga mos qarash sifatida qabul qilingan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.226a).

“Lam” harfining kishilik olmoshiga qo‘shilishi:

“Mufasssal”: “Lam” harfi haqida batafsil ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, bu qoida keltirilmagan.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: “Lam” harfining ega va kesim orasida kelgan kishilik olmoshiga qo‘shilishini zikr qilgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.222b).

Kasrali إِنَّ “in”ning kesimiga “lam” harfi kirishi:

“Mufasssal”: Bu qoida zikr qilinmagan.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Chalkashlikdan saqlanish uchun inkorni bildiruvchi kasrali إِنَّ “in”ning kesimiga “lam” harfi kirishini ta’kidlagan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.224b).

Qaratqichli aniqlovchi va qaralmishning nomlanishi:

“Mufasssal”: Bu birikma izofa ma’naviy va izofa lafziy deb atalgan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 98).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Haqiqiy izofa va haqiqiy bo‘lmagan izofa qo‘llangan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.74b).

إِنَّ – “unday bo‘lsa” ismining fe’lga ta’siri:

“Mufasssal”: إِنَّ – “unday bo‘lsa” ismi kelasi zamon fe’li oldidan kelib, uni nasb qiladi deyilgan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 247).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: إِنَّ – “unday bo‘lsa” ismi shart gap, ega yoki qasamdan keyin kelsa, uning ta’siri yo‘qoladi. Fe’l raf yoki jazm holatda qoladi, degan qoidani qo‘shimcha misollar bilan tushuntirgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.177a).

لَنْ harfining ma’nosi:

“Mufasssal”: لَنْ harfining kelajak inkorini ta’kidlash ma’nosida ishlatilishini aytgan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 312).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: لَنْ harfi inkorni ifoda qilishini aytgan, lekin ta’kidni ifoda qilishini qat’iy yoqlamagan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.176a).

يُحْتَمَلُ yuklamasidan keyin fe’lning harakati (Baqara surasi, 214-oyat):

“Mufasssal”: O‘tgan zamonni hikoya qilishda fe’lni nasb hamda raf o‘qish mumkin deb ta’kidlagan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 249).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Agar o‘tgan zamonni hikoya qilsang, fe’l nasb o‘qiladi degan qoidani qat’iy keltirgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.178a).

“Lam” yuklamasining xususiyati:

“Mufasssal”: Fe’l oldidan kelib, yashirin اُن harfi bilan fe’lni nasb holatda kelishini talab qilishi zikr qilingan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 247).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Ikkita xususiyatini zikr qilgan: 1) sababni ifoda qilish; 2) inkorni ta’kidlash uchun kelishi (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.178b).

Ikki fe’lni jazm qiluvchi ismlar sonining keltirilishi:

“Mufasssal”: Bu ismlarning faqat uchasi zikr qilingan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 253).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: اِنْ “in” ma’nosini o’z ichiga oluvchi to’qqizta ism bilan jazm holatda kelishi bayon qilingan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.182a).

Gumon fe’llarining ikkita to’ldiruvchilari oralig’iga olmosh kirishi:

“Mufasssal”: Bu masala berilmagan.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Ajratuvchi olmosh (هو) ikkita to’ldiruvchi orasiga kirishi zikr qilingan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.193a).

Gumon fe’llarining ikki to’ldiruvchiga o’timli bo’lishi:

“Mufasssal”: “Hisobladim”, “o’yladim” va “da’vo qildim” fe’llari, ya’ni 3 tasi doimo 2 to’ldiruvchini talab qiladi (Al-Zamakhshari, 2003, p. 261).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Faqat “Hisobladim” va “o’yladim” fe’llari doimiy ikki to’ldiruvchiga o’timli bo’lishini qat’iy belgilagan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.193b).

ما – “ma”ning kesimiga الباء ko’makchisi kirishi:

“Mufasssal”: Bu faqat Hijoz tilida joiz bo’ladi (Al-Zamakhshari, 2003, p. 98).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Bu masalada sukut qilib, Hijoz bilan chegaralanmagan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.211a).

الفاعل نائب – “Eganing o’rnini bajaruvchi so’z”ning atalishi:

“Mufasssal”: Bu atama va qoida keltirilmagan.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: الفاعل نائب – “Eganing o’rnini bajaruvchi so’zni bu atama bilan emas, فاعل – “ega” atamasi bilan qo’llab, uning mazmunini bergan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.190a).

Ta’kidlovchining nomlanishi:

“Mufasssal”: Aniq va aniq bo’lmagan ta’kidlovchi (Al-Zamakhshari, 2003, p. 114).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: Lafziy va ma’naviy ta’kidlovchi (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.85a).

Istisno kalimalar turlari:

“Mufasssal”: ليس، يكون لا – “Bo’lmaydi va emas, yo’q” fe’llari istisno kalimalari turiga qo’shilmagan.

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb”: ليس، يكون لا – “Bo’lmaydi va emas, yo’q” fe’llari istisno kalimalari qatorida zikr qilingan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.72a).

Maqtov va tahqirlash fe'llari egasi turlari:

“Mufassal”: Egasi aniq holdagi soʻz yoki izofa qilingan muzof yoki noaniq nasb holatdagi yashirin soʻz (tamiz) (Al-Zamakhshari, 2003, p. 273).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb”: Birinchi ism foil, ikkinchisi maqtov yoki tahqirlash bilan xoslangan ism. Birinchi foil “al” aniqlik artikli bilan turdosh ot boʻlib kelganligi taʼkidlangan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.207a).

Paytni bildiruvchi ismlar:

“Mufassal”: Payt ismlari feʼlga izofa boʻladi (Al-Zamakhshari, 2003, p. 108).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb”: payt ismlari feʼlga izofa boʻlganda payt holi “fatha”ga oʻzgarmasligini shart qilgan (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.59a).

“Feʼl qismi”da feʼl taʼrifida:

“Mufassal”: feʼlning faqat zamonga bogʻliqligini zikr qilgan (Al-Zamakhshari, 2003, p. 243).

“Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb”: oʻtkan zamon felini oʻtgan zamonda sodir boʻlgan maʼnoga dalolat qilishini, kelasi zamon feʼli kelasi zamon feʼlini hosil quluvchi koʻmakchilarni qobul qiladigan kalima (Al-Khwarazmi, n.d., MS 10518.172b).

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb” asari boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar va matniy tahlillar asosida quyidagi yakuniy xulosalarni taqdim etamiz:

Xulosa. Birinchidan, asarning tuzilishi klassik sharhchilik anʼanalaridan tubdan farq qiladi. Odatda biror asar sharhlanganda tayanch matn keltirilib, soʻngra unga izoh beriladi. Biroq “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-eʼrāb”da “Unmuzaj” matni mavjud emas, shuningdek, sharhni asl matndan ajratib turuvchi maxsus belgilar yoki “muallif aytdi” kabi iqtibosiy havolalar uchramaydi. Bu esa muallifning asarni sharh sifatida emas, balki oʻz shaxsiy ilmiy bayoni sifatida yozganidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, manbashunoslik tahlili shuni koʻrsatadiki, Karl Brokkelman kabi Gʻarb olimlari asarni “Unmuzaj” sharhlari qatoriga kiritgan boʻlsalar-da, bu koʻproq muallifning Zamaxshariy bilan ustoz-shogirdlik rishtalari va asar muqaddimasidagi havolalarga asoslangan taxminiy xulosadir. Aksincha, Shayx Ogʻa Buzruk, J. Tohirov va Ayhan Jon kabi Sharq olimlari asarni mustaqil manba sifatida qayd etadilar. Bu oʻrinda bevosita manbaning tili va anʼanalarini yaxshi biladigan Sharq ulamolarining qarashlari ilmiy jihatdan salmoqliroqdir.

Uchinchidan, “Unmuzaj” va “Mufassal” asarlari bilan oʻtkazilgan qiyosiy tahlillar asarning mustaqilligini amaliy jihatdan isbotlaydi. Tadqiqot davomida “Kifayatu-n-nahv” va “Unmuzaj” oʻrtasida 20 ga yaqin, “al-Mufassal” asari bilan esa 30 ga yaqin oʻrinda fundamental ilmiy farqlar va qarashlar xilma-xilligi aniqlandi. Agar asar shunchaki sharh boʻlganida, muallif bu darajada koʻp oʻrinlarda oʻz ustozining fikrlaridan chekinmagan boʻlar edi.

“Kifayatu-n-nahw fi ilmi-l-e’rāb” asari Zamakhshariy nahw maktabi an’alarini o’zida mujassam etgan bo’lsa-da, u mazmun va manhaj jihatidan mustaqil ilmiy asar hisoblanadi. Muallif murakkab grammatik qoidalarni tizimlashtirib, ularni sodda va o’rta uslubda tushuntirish orqali o’ziga xos ilmiy-pedagogik yondashuvni namoyish etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abu Bakr Muhammad ibn al-Sarraj al-Nahwi al-Baghdadi. (1996). Al-Usul fi al-Nahw. – Beirut: Muassasat al-Risala. – 436 p. (in Arabic)
2. Abu al-Fath Nasir al-Din ibn Abd al-Sayyid ibn Ali al-Mutarrizi. Al-Misbah fi Ilm al-Nahw. – Cairo: Maktabat al-Shabab. – 159 p. (in Arabic)
3. Abu al-Qasim Mahmud ibn Umar al-Zamakhshari. (2003). Al-Mufasssal fi Ilm al-Arabiyya. Edited by Fakhr Salih Qidara. – Jordan: Dar Ammar. – 565 p. (in Arabic)
4. Al-Allama Hajji Khalifa. (2021). Kashf al-Zunun 'an Asami al-Kutub wa al-Funun. Vol. 1. Edited by Kamal al-Din Hassan Ali. – Beirut: Muassasat al-Furqan. – 689 p. (in Arabic)
5. Al-Allama Hajji Khalifa. (2021). Kashf al-Zunun 'an Asami al-Kutub wa al-Funun. Vol. 6. Edited by Kamal al-Din Hassan Ali. – Beirut: Muassasat al-Furqan. – 654 p. (in Arabic)
6. Al-Allama Ibn al-Hajib. (2018). Al-Kafiya fi al-Nahw. – Tashkent: Maktabat Mawarannahr. – 217 p. (in Arabic)
7. Al-Allama Ibn Ya'ish. Sharh al-Mufasssal fi San'at al-I'rab. Vol. 1. – Egypt: Idarat al-Tiba'a al-Muniriyya. – 132 p. (in Arabic)
8. Al-Allama Ibn Ya'ish. Sharh al-Mufasssal fi San'at al-I'rab. Vol. 4. – Egypt: Idarat al-Tiba'a al-Muniriyya. – 584 p. (in Arabic)
9. Al-Sheikh Muhammad Muhsin ibn Ali ibn Muhammad Rida al-Tehrani al-Najafi. (1983). Kitab al-Dhari'a ila Tasanif al-Shi'a. Vol. 18. – Beirut: Dar al-Adwa'. – 441 p. (in Arabic)
10. Ardabili Jamal al-Din Muhammad ibn Abd al-Ghani. (1999). Sharh al-Unmuzhaj fi al-Nahw lil-Allama al-Zamakhshari. Edited and annotated by Dr. Husni Abd al-Jalil Yusuf. – Cairo: Maktabat al-Adab. – 230 p. (in Arabic)
11. Ayhan Jon. (2021). Relationships of Commentaries in Definition, Citation, and Criticism: The Case of Zamakhshari's "Unmuzhaj". // Journal of Rumelide Studies in Language and Literature, (December). – pp. 681-695. (in Arabic)
12. Belyaev, E.A. (1966). Arabs, Islam and the Arab Caliphate in the Early Middle Ages (Araby, islam i Arabskiy khalifat v ranneye srednevekov'ye). – Moscow: Nauka. – 278 p. (in Russian).
13. Carl Brockelmann. (1975). History of Arabic Literature (Tarikh al-Adab al-Arabi). Part 6. – Egypt: Dar al-Ma'arif. – 405 p. (in Arabic)

14. Dhiya al-Din al-Makki al-Khwarazmi. (1414 AH). Al-Manaqib. Edited by Sheikh Malik al-Mahmudi. – Qum: Islamic Publishing Institution. – 416 p. (in Arabic)
15. Salah al-Din al-Zablawi. Al-Dirasat fi al-Nahw. – Al-Maktaba al-Shamela. – 288 p. (in Arabic)
16. Tohirov, J., Makhsudov, D., Tohirov, J. (2019). Islamic Source Studies. – Tashkent: "Qaqnus Media" Publishing House. – 363 p.(in Uzbek)
17. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. Kifayatu-n-nahw fi ilmi-l-e'rāb. – Manuscript copy No. 10518. Manuscript Fund of the Institute of Oriental Studies, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. (in Arabic)
18. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy. Kifayatu-n-nahw fi ilmi-l-e'rāb. – Manuscript S. Iran: Parliament Library, №18017. (in Arabic)